

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY



ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyeu Nurali - i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich - v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li - q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi
fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 581 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil
31-oktabrda ruxsat etildi.





**“AGROBIZNES, FAN VA
TEXNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNALI**

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.



M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

Xalimov Javlonbek Shaxriyovich

Logistika va yetkazib berish xizmatlarini rivojlantirish borasidagi tizimli yondashuv uslubiyoti.....11

Nabiyev G‘ulom Abdisalomovich

Mintaqa iqtisodiyotida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda va barqaror iqtisodiyotdagi roli.....21

Razzakov Durbek Xoshimovich

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.....31

Yusupov Farxod Adamboyevich

Ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik usullar orqali tahlil qilishning xorij tajribasi.....39

Xolmatova Dilafruxxon Maxsudjon qizi

Aholini turmush farovonligini oshirishda kambag‘allikni kamaytirishni o‘ziga xos xususiyatlari.....51

Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna

Tijorat banklari faoliyati moliyaviy natijadorligining nazariy asoslari.....56

Abdusattorov Abdusamat Sobirovich

Temir yo‘l transportining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun raqamli transformatsiya.....66

Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li

Kichik biznes sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar.....74

Sadikov Zafarbek Adilbekovich

Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.....81

Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li

Ichki audit samaradorligini baholash mezonlari va buxgalteriya ma’lumotlarining ichki audit jarayonidagi ahamiyati.....88

Maribjonov Botirjon Ikromjonovich

Nodavlat oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarish.....97

Sarvar Mamasoliyev

O‘zbekistonda smart suv menejmentidan foydalanish istiqbollari.....316

Alisher Xudoynazarovich Shadiyev

Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish.....329

Jumayeva Zamira Bustonovna

Buxoro viloyati iqtisodiyotida davlat va xususiy sektor hamkorligining samaradorligini oshirish mexanizmlari.....335

Boltayev Nurali Shiramatovich, Miraxmedova Kamola Fozil qizi

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda Xitoy tajribasini qo‘llash imkoniyatlari.....342

Miraxmedov Jasur Isroilovich

Banklar faoliyati samaradorligiga vositachilik xizmatlarining ta’sirini statistik tadqiq qilish.....350

Alisher Kurambayev

Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish xizmatini samarali tashkil etish omillari...359

Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes sohasidagi iqtisodiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari.....366

Djurayev Olimjon Narkulovich, Sulaymonov Sulaymonjon Odil o‘g‘li

Mintaqa iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilish usullari.....372

Abdullayeva Shaxnoza Esonovna

Kichik biznesda innovatsion salohiyatni boshqarishning mavjud mexanizmlari.....380

To‘qsonov Xurshid, Raimov Yodgor

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq nazorati nazariy konsepsiyasi.....388

Javliyev Nuriddin Bektemir o‘g‘li

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allik dinamikasi.....398

Quliyev Anvar Zayniddinovich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit mablag‘larini jalb qilishning ilmiy nazariyalari.....405

Nabiyev Olimjon Abdisalomovich

Xizmatlar sohasida beqaror ish bilan bandlik masalalari.....412

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES SOHASIDAGI IQTISODIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

ARZIKULOV OTABEK ALI O'G'LI

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar
instituti mustaqil izlanuvchisi, PhD, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi roli, uning moliyaviy, soliq va infratuzilmaviy to'siqlari, shuningdek kadrlar salohiyati bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Muammolarni bartaraf etish yo'llari sifatida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish, soliq tizimini soddalashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Maqola O'zbekistonda kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlashning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy muammolar, moliyaviy resurslar, soliq tizimi, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, davlat qo'llab-quvvatlashi.

Аннотация. В данной статье анализируются основные экономические проблемы, связанные с развитием малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан. Рассмотрены роль малого бизнеса в национальной экономике, проблемы, связанные с доступом к финансовым ресурсам, налоговой нагрузкой, инфраструктурными барьерами и кадровым потенциалом. В работе предлагаются практические пути их решения, включая совершенствование налоговой системы, расширение финансовой поддержки, внедрение цифровых технологий и стимулирование инновационного предпринимательства. Результаты исследования направлены на укрепление теоретико-методологических основ эффективной поддержки малого бизнеса в Узбекистане.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, экономические проблемы, финансовые ресурсы, налоговая система, инновации, цифровая экономика, государственная поддержка.

Abstract. This article analyzes the main economic challenges associated with the development of small business and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan. It discusses the role of small business in the national economy, issues related to access to financial resources, taxation, infrastructure barriers, and human capital. The study proposes practical solutions such as improving access to finance, simplifying the tax system, introducing digital technologies, and fostering innovative entrepreneurship. The results of the research aim to strengthen the theoretical and methodological foundations of effective small business support in Uzbekistan.

Keywords: small business, private entrepreneurship, economic problems, financial resources, taxation system, innovation, digital economy, state support.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini oshirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillik yillaridan buyon iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bozor munosabatlarini shakllantirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kichik biznesning roli ortib bormoqda. Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu sohani qo'llab-quvvatlash maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

So'nggi yillarda qabul qilingan Prezident farmon va qarorlarida kichik biznes sub'ektlariga qulay sharoit yaratish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Xususan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida rivojlantirish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, kichik biznes sohasida hal etilishi zarur bo'lgan qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi ko'plab tadbirkorlar faoliyatini cheklab qo'ymoqda. Tijorat banklari tomonidan qo'yiladigan yuqori garov talablari, foiz stavkalari va kredit olishdagi murakkab byurokratik jarayonlar ayniqsa yangi boshlayotgan tadbirkorlar uchun jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli ko'plab kichik korxonalar o'z faoliyatini cheklangan aylanma mablag'lar bilan amalga oshirmoqda yoki norasmiy iqtisodiy faoliyatga o'tib ketmoqda.

Ikkinchidan, soliq va ma'muriy to'siqlar ham kichik biznesning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Soliq hisobotlarining ko'pligi, ortiqcha hujjatbozlik va ayrim mahalliy boshqaruv organlaridagi byurokratik munosabatlar tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Holbuki, kichik biznes sub'ektlari uchun soliq tizimini yanada soddalashtirish, elektron hisobot va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Uchinchi yirik muammo sifatida infratuzilmaviy va institutsional to'siqlarni qayd etish mumkin. Ayrim hududlarda transport, logistika va kommunikatsiya tarmoqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kichik biznes sub'ektlarining faoliyatini cheklab qo'ymoqda. Shuningdek, yer uchastkalari ajratish, ruxsatnomalar va litsenziya olish jarayonlaridagi sustlik ham tadbirkorlar uchun vaqt va mablag' yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, kadrlar salohiyatining pastligi va tadbirkorlik bilimlarining yetarli emasligi ham sohadagi samaradorlikni kamaytiradi. Ko'plab tadbirkorlar zamonaviy biznes boshqaruvi, marketing va raqamli texnologiyalar bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega emas. Shu sababli, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish,

yangi bozorlarga chiqish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklanmoqda.

Mazkur muammolarni tahlil qilish shundan dalolat beradiki, kichik biznesni rivojlantirish sohasidagi islohotlarni faqat huquqiy va tashkiliy yo‘nalishda emas, balki ilmiy, ta’limiy va raqamli asoslarda ham mustahkamlash zarur. Davlat organlari, moliya muassasalari va ta’lim tizimi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish orqali kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini oshirish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes sohasidagi asosiy iqtisodiy muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash hamda milliy sharoitda amalga oshirish mumkin bo‘lgan samarali yechimlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot doirasida kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish masalasi jahon iqtisodiy fanlarida keng qamrovli tadqiqotlar ob’ekti bo‘lib kelgan. Xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida bu soha nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ijtimoiy barqarorlik, bandlik va innovatsion faollikning muhim omili sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, mavzuga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish kichik biznes rivojining nazariy asoslarini aniqlash, iqtisodiy muammolarni tizimli ko‘rib chiqish va ularni hal etish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Xorijiy adabiyotlarda kichik biznesning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosati va moliyaviy institutlarning roli keng yoritilgan. Masalan, P. Druker, J.Shumpeter, R.Kantilon kabi iqtisodchilar tadbirkorlikni iqtisodiy inqilobning harakatlantiruvchi kuchi deb hisoblaydilar. Ularga ko‘ra, kichik biznes iqtisodiyotdagi raqobat muhitini faollashtiradi, innovatsiyalarni amalga oshiradi va bozor mexanizmlarini takomillashtiradi. Shu bilan birga, M. Porterning raqobat afzalliklari nazariyasida kichik biznes sub’ektlari iqtisodiy klasterlarning asosiy elementlaridan biri sifatida qayd etiladi. Bu nazariya kichik biznes va yirik sanoat tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida asoslaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari tajribasida ham kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib kelmoqda. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirishga oid maxsus davlat dasturlari amalga oshirilgan. Xususan, Qozog‘istonda “Biznesting yo‘li xaritasi – 2025” dasturi kichik va o‘rta biznes uchun imtiyozli kreditlar, grantlar hamda biznes-inkubatorlar tizimini o‘z ichiga olgan. Bu tajribalar O‘zbekiston uchun ham foydali namuna bo‘lib, milliy sharoitda tatbiq etish imkoniyatlarini taqozo etadi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham kichik biznes masalasi keng o‘rganilgan. O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan A.Aripov, Sh.Abdullaev, B.Ro‘ziev va N.Qayumovlar o‘z ishlarida kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi roli, uning tarkibiy muammolari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yoritib

berganlar. Ular ta'kidlaydilar, kichik biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy institutlar faoliyatini takomillashtirish, soliq yukini qisqartirish va litsenziyalash tizimini soddalashtirish zarur. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy jihatdan muhofaza qilish va raqamli iqtisodiyot asosida boshqaruv tizimini joriy etish muhim deb hisoblaydilar.

So'nggi yillarda kichik biznesni raqamlashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar ham faollashgan. Masalan, D. Rahimov va S. Mamatqulov ishlarida raqamli texnologiyalar kichik biznesning samaradorligini oshirishdagi asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatilgan. Ularning fikricha, elektron tijorat, onlayn buxgalteriya, avtomatlashtirilgan soliq hisoboti va elektron hujjat aylanmasi kichik biznes sub'ektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Osiyo taraqqiyot banki hisobotlarida ham O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatining ijobiy natijalari ta'kidlanadi. Ularga ko'ra, mamlakatda tadbirkorlik muhiti yaxshilanib, biznesni boshlash va yuritish shartlari soddalashtirilgan. Biroq, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati hali ham cheklangan bo'lib, bu sohada ilg'or xalqaro tajribani joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy rivojlanishni ham ta'minlaydi. Biroq uning samarali faoliyati uchun moliyaviy, huquqiy va infratuzilmaviy asoslarni takomillashtirish dolzarbdir. Mavjud ilmiy manbalar tahlili asosida aytilish mumkinki, kichik biznes sohasidagi muammolarni hal etish uchun davlat, xususiy sektor va ilmiy jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion va raqamli yechimlarni amaliyotga joriy qilish zamonaviy talabdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kichik biznes sohasining iqtisodiy holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, iqtisodiy statistik usullar hamda ekspert baholash usuli qo'llanildi. Shuningdek, davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlillari, xalqaro moliya institutlarining hisobotlari tahlil etildi. Tadqiqotning maqsadi – O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy iqtisodiy omillarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha amaliy yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash;
- moliyaviy, soliq, infratuzilmaviy va institutsional muammolarni tahlil qilish;
- xorijiy tajribalarni o'rganish orqali samarali yechim modellarini ishlab chiqish;
- O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini baholash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ilmiy manbalar, rasmiy hisobotlar, Prezident ma'ruzalari va milliy rivojlanish strategiyasi hujjatlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiy tizimning faol va barqaror qismi bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmidan

ortig'ini ta'minlaydi. Biroq sohaning rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan moliyaviy, soliq, infratuzilmaviy va kadrlar bilan bog'liq muammolar hanuz mavjud. Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, kichik biznes sub'ektlarining 35 foizi moliya resurslariga kirish imkoniyati cheklanganligi sababli o'z faoliyatini to'liq amalga oshira olmayotganini bildirgan. Shu bilan birga, tadbirkorlarning 28 foizi soliq va ma'muriy to'siqlarni asosiy muammo sifatida ko'rsatgan. Infratuzilmaviy muammolar 22 foizni tashkil etsa, kadrlar salohiyatining pastligi va innovatsiya faoliyatining sustligi 15 foizni tashkil etgan. Bu natijalar kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishida tizimli o'zgarishlar zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammolar va ularning ulushi

Muammo toifasi	Tadqiqotda aniqlangan daraja (%)
Moliya resurslariga kirish imkoniyati	35
Soliq va ma'muriy to'siqlar	28
Infratuzilmaviy muammolar	22
Kadrlar salohiyati va innovatsiya	15

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, moliyalashtirish sohasidagi cheklovlar kichik biznesning asosiy muammosi sifatida ajralib turadi. Bu holat tijorat banklarining yuqori garov talablari va foiz stavkalari bilan bog'liq. Soliq va ma'muriy yuk ham kichik tadbirkorlik faoliyati samaradorligini pasaytiradi. Shu sababdan, tadbirkorlik muhitini yaxshilashda raqamli texnologiyalar va soddalashtirilgan tartiblarni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini qayta ko'rib chiqish zarur. Davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, grantlar va venchur mablag'larini ajratish mexanizmlari shaffof va natijaviy bo'lishi lozim. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlari va loyiha asosida mablag' taqsimlovchi jamg'armalarning faoliyatini kengaytirish kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Soliq tizimini isloh qilishda eng muhim yo'nalish — raqamlashtirish va avtomatlashtirishdir. Elektron hisobot tizimlari orqali tadbirkorlar uchun byurokratik to'siqlar kamayadi va shaffoflik ta'minlanadi. Shuningdek, kichik biznes uchun "bir darcha" tamoyili asosida barcha soliq va moliya xizmatlarini integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Infratuzilma sohasida kichik sanoat zonalarini tashkil etish va ularda umumiy muhandislik tarmoqlarini rivojlantirish kichik biznes sub'ektlariga qulay sharoit yaratadi. Bu nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, balki hududiy iqtisodiy faollikni ham oshiradi.

Shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish sohasida amaliy tadbirkorlik kurslari, startap inkubatorlari va biznes akseleratorlar tashkil etish muhim. Bu platformada yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Zamonaviy raqamli ta'lim tizimi orqali tadbirkorlar internet marketing, moliya boshqaruvi va elektron savdo sohasida bilim olishlari mumkin.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlash uchun davlat, xususiy sektor va ilmiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik muhim. Masalan, Germaniya va Yaponiyada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash milliy dasturlari ilmiy-tadqiqot markazlari bilan integratsiyalangan bo'lib, innovatsiyalarni amaliy biznes faoliyatiga tatbiq etish orqali iqtisodiy o'sish ta'minlangan. O'zbekiston ham bu kabi modellardan foydalanishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Biroq sohada hali ham moliyaviy, tashkiliy va institutsional muammolar mavjud. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznesni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish zarur:

- tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

- soliq va hisobot tizimini soddalashtirish hamda raqamlashtirish;
- kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish;
- hududiy infratuzilmani rivojlantirish va kichik sanoat zonalarini ko'paytirish;
- yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish.

Bu chora-tadbirlar kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi, yangi ish o'rinlari yaratishga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Demak, kichik biznesni rivojlantirish — O'zbekistonning iqtisodiy istiqbolini ta'minlaydigan strategik yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Портер, М. Е. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. — М.: Альпина Паблишер, 2019. — 720 с.

2. Друкер, П. Бизнес и инновации. — М.: Вильямс, 2018. — 432 с.

3. Шумпетер, Й. А. Теория экономического развития. — М.: Прогресс, 2007. — 455 с.

4. Абдуллаев, Ш. А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни ривожлантиришнинг иқтисодий асослари. — Тошкент: Иқтисод-Молия, 2020. — 256 б.

5. Раҳимов, Д.Х. Рақамли иқтисодиёт шароитида кичик бизнесни ривожлантириш стратегиялари. // “Иқтисод ва инновациялар” журнали. — 2022. — №3. — Б. 45–53.

6. Қаямов, Н. Б. Ўзбекистонда кичик бизнесни молиявий қўллаб-қувватлаш механизмларини такомиллаштириш. — Тошкент: Фан ва технологиялар нашриёти, 2021. — 198 б.

7. World Bank. Uzbekistan: Enhancing the Role of SMEs in Economic Growth. — Washington, D.C.: World Bank Publications, 2022. — 85 p.